

О‘ЗBEK TILIDA LEKSEMANING LEKSIK SEMANTIK JIHTLARI

Sattarqulova Sh

GulDU mustaqil izlanuvchisi

Leksemaning miyaning til xotirasi qismidagi ramzida (ifoda jihati haqidagi axboratga birkirilgan holda) mazmun jihati haqidagi axborat ham mavjud bo‘ladi. Leksemaning mazmun jihatida ikki hodisa farqlanadi:

- ma'lum bir voqelikni nomlashi (nominativ vazifa bajarishi; lot. nominatio - 'nom');
- ma'lum bir ma'noni anglatishi (signifikativ vazifa bajarishi; lot. significatio - 'ma'no', 'farq').

Leksema avvalo voqelikni nomlash uchun yaratiladi, keyin unga ma'lum mazmun birkiriladi. Masalan, *qosh*- leksemasi kishi tanasi a'zolaridan birining nomi bo‘lib, uning bosh ma'nosi 'qovoq ustini qoplab turadigan zich o‘siq tuklar' deb ta'riflanadi.

Leksemaning mazmun jihati ancha murakkab bo‘lib, uning asosini leksik ma'no tashkil qiladi. Leksemaning voqelikka nisbat beriladigan lug‘aviy mazmuniga leksik ma'no deyiladi. Masalan, *kuz*- leksemasi 'yoz bilan qish oralig‘idagi fasl' ma'nosini, *to‘rt*- leksemasi 'uch bilan besh oralig‘idagi butun miqdor' ma'nosini, *gapir*- leksemasi 'ma'lum bir fikrni tovushlar vositasida ma'lum qil-' ma'nosini anglatadi.

Leksik ma'no asli til tovushlarining ma'lum bir qatoriga birkirilgan holda yuzaga keladi va mavjud bo‘ladi. Tovushlar qatori bilan leksik ma'noning o‘zaro bog‘liqligi tabiatan bo‘lmay, bir til egalari orasida shartlashilgan, e'tirof etilgan tarzda bo‘ladi. Shunga ko‘ra har bir leksemani shu tilda gapiruvchi kishilarning barchasi bir xil leksik ma'noda ishlatadi va tushunadi.

Leksik ma'no bilan u bildiradigan voqelik – boshqa-boshqa hodisalar. Leksik ma'noda voqelikdagi predmetning, belgining yoki shular orasidagi munosabatlarning o‘zi emas, balki ular haqidagi tushuncha aks etadi. Shunga ko‘ra leksik ma'no deb odatda tushuncha ta'kidlanadi. Leksik ma'no bilan tushuncha o‘zaro bog‘liq, lekin teng

emas. Leksik ma'no til qurilishiga xos, tushuncha esa tafakkurga xos. Har ikkisi umumlashtirishga asoslanadi, lekin tushuncha fikrlash qobiliyatining natijasi sifatida insonga nisbatan belgilanadi, leksik ma'noga xos umumlashtirish esa har bir tilning o'zi doirasida voqe bo'ladi. Shunga ko'ra leksik ma'no har bir til uchun xususiy bo'ladi.

Masalan, *ko'z*- leksemasining bosh leksik ma'nosi - 'qarash, ko'rish a'zosi'. Bu leksema bilan yana bir necha leksik ma'nolar anglatiladi. Quyidagi birikmalarda bu leksemaning turli leksik ma'nolari namoyon bo'ladi: *tizzaning ko'zi, taxtaning ko'zi, buloqning ko'zi, ignaning ko'zi, xurjunning ko'zi, uzuk-ning ko'zi, derazaning ko'zi, kartoshkaning ko'zi*. Bu leksemaning leksik ma'nolari boshqa tilga, masalan, rus tiliga tarjima qilinsa, leksik ma'nolarga xos milliylik yaqqol ko'rinadi. O'zbekcha *ko'z*- va ruscha *glaz* leksemalari asosan bosh leksik ma'nosida-gina muqobil; *ko'z*-leksemasining boshqa ma'nolariga rus tilida tamoman boshqa leksemalar muqobil. Yuqorida sanalgan o'zbekcha birikmalar tarkibidagi *ko'z*- leksemasiga rus tilida quyidagilar muqobil: *kolennaya chashechka, suchok v doske, mesto, otkuda byot rodnik, ushko igli, otverstviye nariva, odna polovina (otdeleniye) peremetnoy sumi, kamen v kolse, otdelnoye steklo okna, glazki kartofela*. Demak, har bir leksemaning leksik ma'nolari o'ziga xos mundarijaga ega bo'ladi, har bir tilda o'ziga xos tizim hosil qiladi.

Leksik ma'noning asosini tushuncha tashkil etadi. Yuqorida tasvirlangan *ko'z*-leksemasining har bir leksik ma'nosi boshqa-boshqa tushunchani anglatadi, boshqa-boshqa voqelikni nomlaydi. Leksema bilan tushuncha teng kelishi uchun bunday leksema faqat bir leksik ma'noli bo'lishi lozim; boshqa hollarda leksema bilan tushuncha orasida tenglik bo'lmaydi; leksema necha leksik ma'noli bo'lsa, bu leksema bilan shuncha tushuncha anglatiladi. Shunga ko'ra leksemaning mazmun jihati tushunchadan keng, boy bo'ladi.

Leksik ma'no bilan tushuncha orasida tenglik termin leksemalarda bo'ladi (lot. *terminus* - 'chegara'). Termin leksema notermin leksemadan o'z ma'nosining aniq ta'riflab, chegaralab, belgilab qo'yilganligi bilan farq qiladi. Shunga ko'ra termin har vaqt ayni bir tushunchani anglatadi. Masalan, tilshunoslikdagi *urg'u*- termini 'havo

oqimiga beriladigan zarb yordamida leksemashaklning talaffuz jihatidan bir butunligini hosil etish usuli' tushunchasini, adabiyotshunoslikdagi *qofiya-* termini 'she'r misralari oxirining tovush jihatidan bir xilligi' tushunchasini anglatadi.

Har bir termin odatda ma'lum bir sohaniki bo'ladi. Ammo shunday hollar ham uchraydiki, bir leksema ayni vaqtda bir necha sohaning termini bo'lib ham xizmat qiladi. Masalan, *tekislik-* leksemasi geografiyada ham ('ravnina' ma'nosida), matematikada ham ('ploskost' ma'nosida) termin sifatida ishlatiladi. Asli bunday holatga yo'l qo'ymagan ma'qul.

Ba'zan bir sohaning o'zi doirasida ikki har xil tushuncha ayni bir leksema bilan anglatiladi. Bunday salbiy holatga umuman yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan, o'zbek tilshunosligida *daraja-* leksemasi uzoq vaqt ikki har xil hodisaning nomi sifatida ishlatildi: *sifat darajalari-*, *fe'l darajalari-*; keyinchalik ikkinchi hodisa *nisbat-* termini bilan nomlandi; *qaratqich-* leksemasi ham uzoq vaqt kelishikning va bo'lakning nomi sifatida ishlatildi, hozir bo'lakning nomi sifatida *qaraturvchi-* termini qabul qilindi.

Ko'pma'nolilik notermin leksemada tabiiy, hatto zaruriy holat deb qaralsa, terminda g'ayriqonuniy, chalkashlikka olib keladigan, qiyinchilikni yuzaga keltiradigan holat deyiladi. Chunki notermin leksema nutqda har gal bir leksik ma'nosi bilan ishlatiladi. Ko'pma'noli (aniqrog'i har xil ma'noli) terminda esa uning bir ma'nosi boshqa ma'nosini istisno qilib turavermaydi. Shunga ko'ra ayni bir matnda har xil mazmun duch kelib qoladi. Bunday salbiy holat asosan termin bir sohaning o'zida ko'pma'noli (har xil ma'noli) bo'lganida yuz beradi.

Biror kasb yoki sohaga doir tushunchani anglatadigan, leksik ma'nosi aniq ta'riflangan, ishlatilishi ma'lum doira bilan cheklangan leksemaga *termin* deyiladi. Biror kasb yoki soha terminlarining jami shu kasb yoki sohaning terminologiyasi deyiladi. Barcha terminlar mohiyat jihatdan bir xil emas. Fan-texnika sohalarida ishlatiladigan terminlarda-gina ular anglatadigan tushuncha aniq ta'riflanadi, shunga ko'ra ularning ishlatilish doirasi ham aniq cheklangan bo'ladi, bunday terminlarda leksik ma'no taraqqiyoti uchun ham imkoniyat bo'lmaydi. Masalan, *fonema-*, *morfema-* (tilshunoslik), *chekanka-* (*chilpish*), *kultivatsiya-* (qishloq xo'jaligi)

terminlarida shunday (Ilm-fanning taraqqiyotiga, muallifga bog‘liq holda voqe bo‘ladigan ayrimliklar tushunchaning aniq ta’riflanishiga xalal yetkazmaydi).

Ba’zan leksema ma’lum bir kasb-hunarga, sohaga xos bo‘ladi-yu, lekin u anglatadigan tushuncha aniq ta’riflanmagan bo‘ladi. Shu sababli bunday leksemalar leksik ma’no taraqqiyotiga uchrashi mumkin. Masalan, *kitob-*, *daftar-*, *qalam-*, *qog‘oz-* kabi leksemalar asli ma’lum bir sohaniki. Shunga qaramay bu leksemalar bir necha leksik ma’noda ishlatiladi. Jumladan, *qalam-* leksemasi ‘ingichka grafitning ustini yupqa yog‘och bilan qoplab tayyorlangan yozuv quroli’ ma’nosini anglatadi; bu leksema ayni vaqtda ‘yozuvchi’, ‘qalamkash’ (*qalam ahli*) ma’nolarini ham anglatadi. Terminning keng ommalashib ketishi ham uni notermin leksemaga aylantiradi: *plan-*, *planlashtirish-*, *budjet-* kabi leksemalar hozir keng miqyosda ishlatilib, ularning termin ekanligi sezilmas holga yetgan.

Ikki hodisani farqlash kerak: termin yaratish bor va termin o‘zlashtirish bor. Bu ikki hodisa alohida-alohida baholanishi lozim. Termin asosan ikki yo‘l bilan yaratiladi: Tilda mavjud leksema yangi ma’noda – terminologik ma’noda ishlatiladi. Buni *terminologik ma’noli leksema* deb atash mumkin. Masalan, *qo‘shimcha-* leksemasi asli ‘dopolneniye’ ma’nosini anglatadi: *Takliflar bo‘yicha qo‘shimcha va tuzatishlar bormi?* Bundan tashqari, *qo‘shimcha-* leksemasi yana terminologik ma’noga ham ega: *ko‘plik qo‘shimchasi-*, *kelishik qo‘shimchasi-* kabi. Terminologik ma’no bilan unga asos bo‘lgan leksik ma’no orasidagi bog‘lanish ozmi-ko‘pmi sezilib turadi, shu sababli bunday ma’nolar bir leksemaning ma’nolari sifatida birlashadi. Masalan, *gap-* leksemasi o‘zbek tilida avvalo ‘razgovor’ ma’nosini anglatadi; *Gapni Tavhidiy boshladi* (Abdulla Qahhor). Bu leksemaning yana bir leksik ma’nosi - ‘ziyofat’: *Chol o‘ldi, o‘g‘il yeb yotibdi: gap-gashtak, bazm, uloq, mehmon-izlom inchunun* (Oybek). Bulardan tashqari, *gap-* leksemasi grammatik termin bo‘lib ham xizmat qiladi: *gap bo‘laklari-*, *qo‘shma gap-* kabi.

Misollardan ko‘rinadiki, terminologik ma’no kashf etish tub leksemaga ham, yasama leksemaga ham xos.

Termin maxsus yasaladi. Buni yuqoridagi hodisadan farqlab *termin leksema* deb atash mumkin. Masalan, *bosim-*, *ko'rsatkich-*, *kelishik-*, *turlovchi-*, *tuslovchi-* kabilar – o'zbek tilida yasalgan termin leksemalar. Bunday leksema odatda faqat termin sifatida xizmat qiladi.

Termin leksema yasashda ikki holat bor: o'zigacha parallel yasalish yo'q bo'ladi, yangidan yasaladi: *urg'u-* - 'udareniye', *yuklama-* - 'chasticha', *sifatdosh-* - 'prichastiye', *ravishdosh-* - 'deyeprichastiye' kabi;

o'zigacha parallel yasalish bor bo'ladi: *birlik-* - 'edinstvo' va *birlik-* - 'edinstvennoye chislo', *kesim-* - 'lomot', 'kusok' va *kesim-* - 'skazuye-moye' kabi. Bunda bir yasama leksemaga parallel ravishda qayta yasash voqe bo'ladi, yasalma har gal yangi leksik ma'noni anglatishga xizmat qiladi. Bunday yasalish oz uchraydi.

Terminologik ma'no o'zi uchun asos bo'lgan leksik ma'noga nisbatan ikkilamchi, hosila ma'no bo'ladi. Termin leksemada (agar u ko'p ma'noli bo'lsa) taraqqiyot aksincha yuz beradi: terminologik ma'no birlamchi, boshqa leksik ma'no terminologik ma'noga nisbatan ikkilamchi, hosila ma'no bo'ladi: *urg'u-* – tilshunoslik termini, *urg'u-* - 'alohida e'tibor' kabi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Lolaev T. P. So'zni qurilish haqida (DZIRD). Narts ævzag – narts tili (2 qism)
2. Arab filolog o turetskom yazo'ke G' Arab. tekst izd. i snabdil per. i vved. P.M. Melioranskiy. – Sankt-Peterburg : tip. Imp. Akad. nauk, 1900. – S. 33.
3. Dmitriev N.K. Stroy turetskogo yazo'ka. – Leningrad: Leningr. gos. un-t, 1939. – S. 17.